

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 2

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 598 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjaye'vich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori  
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori  
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi  
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti  
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
Sevil Piriye'va Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i  
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

### Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti  
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti  
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr ..... <b>Baxtiyor Islamov</b>	8
Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati ..... <b>Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G’oipnazarov</b>	10
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ... <b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>	16
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko’rsatkichlari va ekologik muammolar ..... <b>Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich</b>	24
Yashil budjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari ..... <b>Meylev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi</b>	30
Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo’nalishlari ..... <b>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</b>	35
Transport vositalari va yo’llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir ..... <b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>	39
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish ..... <b>A. X. Salamov</b>	44
Biznes-reja baliqchilik xo’jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida ..... <b>Dosmuratova Shaxista Kengashovna</b>	48
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog’liqligi ..... <b>Axmediyeva Aliya Toxtarovna</b>	55
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ..... <b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>	63
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari ..... <b>Shamsiyev Nodir Muratovich</b>	67
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari ..... <b>Shagazatov Oybek bahodirovich</b>	72
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo’nalishlari ..... <b>Davlatov Sanjar Abdimannonovich</b>	76
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari ..... <b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	80
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo’nalishlari ..... <b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	84
O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) ..... <b>Yoriyeva Farangiz Murodillayevna</b>	89
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi ..... <b>Nazarova Umida Avazovna</b>	94
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari ..... <b>Mirzaxodjayev Alisher Botirovich</b>	98
Globalashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish ..... <b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>	103
Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o’rni va ahamiyati ..... <b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	108
Ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili ..... <b>Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich</b>	113
Ta’minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish ..... <b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	119
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari ..... <b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>	123
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан ..... <b>Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна</b>	129



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
<b>Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich</b>	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish .....	141
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva</b>	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari: Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
<b>Sultonboeva Munira bahodirovna</b>	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
<b>Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</b>	
Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта .....	159
<b>С. С. Алиева, А. Назаров</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b>	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari .....	170
<b>Ergashev Sarvar Xudoynazarovich</b>	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
<b>Зайнутдинова Умида Джалоловна</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
<b>Qurbonov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
<b>Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li</b>	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
<b>Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
<b>G. Adilova</b>	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
<b>Mardiyev Nurali</b>	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlar.....	203
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili .....	207
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari .....	213
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar .....	226
<b>Eshimov Alisher Dasmurodovich</b>	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi).....	234
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
<b>Rabbimov Elbek Abdulloyevich</b>	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari .....	245
<b>Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li</b>	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
<b>Kenjayev Soxib Sayfiyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
<b>Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi</b>	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli .....	266
<b>Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li</b>	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
<b>Sobirov Otabek Olimjonovich</b>	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	277
<b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>	
Tijorat banklari foydasi va rentabilik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish .....	281
<b>Normo'minov Temurbek Sheraliyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari .....	284
<b>To'ychiyev Otabek Shamshiyevich</b>	
Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b>	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li</b>	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
<b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari .....	302
<b>Abdullayev Boburjon Akbaraliyevich</b>	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	306
<b>Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	310
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
<b>O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov</b>	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation .....	319
<b>Mukhlisa Ikramova</b>	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri .....	325
<b>Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev</b>	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
<b>Kadirova Sharofat Amonovna</b>	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО “Ўзтемирўйлийловчи” .....	332
<b>Н. Э. Кахарова</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	337
<b>Sharipov Bobur Anvar o'g'li</b>	
“STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish .....	342
<b>Musyeva Shoira Azimovna</b>	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari .....	348
<b>M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova</b>	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
<b>Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova</b>	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralarni samaradorligini KPI orqali baholash uslubiyati .....	357
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari.....	362
<b>Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamaova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari .....	369
<b>Tursunova Shaxnoza Farxod qizi</b>	
Процессы цифровизации АО “Hududgazta'minot” .....	373
<b>Хусанов Кахрамон Нишонович</b>	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
<b>Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi.....	381
<b>Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich</b>	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b>	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
<b>Sh. Madraimov</b>	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida .....	397
<b>Xasanova Lola Mamasharifovna</b>	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	400
<b>B. B. Berkinov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
<b>G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li</b>	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
<b>Karimov Bekzodjon Iloxovich</b>	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari .....	420
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
Финансы или корпоративные финансы .....	426
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features .....	432
<b>Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi</b>	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	437
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash .....	448
<b>S. B. Inoyatov</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari .....	453
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....	460
<b>O'lokulova Feruza Mansurovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	463
<b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati .....	469
<b>Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanovna</b>	
Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....	473
<b>M. Yuldosheva</b>	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....	480
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....	487
<b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini institutsional tahlil qilish mexanizmi.....	492
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Integratsiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....	499
<b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....	503
<b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	510
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....	522
<b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
<b>Самигова Гуландом Абдужаббаровна</b>	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri .....	534
<b>Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi</b>	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....	539
<b>Muminov Akmal Tulkunovich</b>	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....	543
<b>Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmira Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich</b>	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari .....	548
<b>Shukurov Iloxom Safarboyevich</b>	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....	555
<b>Umarova Moxigul Maxmayunus qizi</b>	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	560
<b>Yuldashev G'iyos Turabekovich</b>	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....	564
<b>Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna</b>	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	570
<b>Boltayev Abror Sayitmuradovich</b>	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
<b>Гараева Олеся Владимировна</b>	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
<b>Ibragimova Gulchehra Toxirovna</b>	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
<b>Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich</b>	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
<b>Nabiyev Feruz Nurmurodovich</b>	



# TURIZM FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AYRIM USULLARI

**Mirzaxodjayev Alisher Botirovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o'qituvchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizmni davlat tomonidan tartibga solishning mazmuni, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari, vositalari va usullari, sohani samarali rivojlantirishning asosiy tamoyillari va qulay raqobatchilik muhitni shakllantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Turizmni davlat tomonidan tartibga solish vositalari va bosqichlar hamda turizm industriyasi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash darajalari bo'yicha omillari tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** turizm, tartibga solish, tartibga solish vositalari, usullari, davlat siyosati, turizm industriyasi, raqobat, turistik mahsulot, turistik xizmatlar.

**Abstract:** This article examines the main factors of economic activity in tourism infrastructure and its specific features, classification of tourism costs by period and characteristics, the process of production of tourist goods and services, production capacity in tourism and methods of determining gross tourism product.

**Key words:** tourism, tourism infrastructure, tourism industry, tourism costs, alternative costs, tourism products, tourist services, hotels, gross tourism product.

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные факторы экономической деятельности в туристической инфраструктуре и ее специфические особенности, классификация туристских затрат по периодам и характеристикам, процесс производства туристических товаров и услуг, производственные мощности в туризме и методы определения валового туристического продукта.

**Ключевые слова:** туризм, туристическая инфраструктура, индустрия туризма, расходы на туризм, альтернативные затраты, туристические продукты, туристические услуги, отели, валовой туристический продукт.

## KIRISH

Hozirgi bosqichda turizm mamlakat, mintaq va alohida turistik xo'jalik yurituvchi subyekt iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hodisaga aylandi. Zamonaviy turizm mamlakat tarixi, madaniyati, urf-odatlar, ma'naviy va diniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishish imkonini beruvchi, mamlakat budjetiga katta daromad keltiruvchi tizim sifatida rivojlanmoqda. Turistik mahsulotlarni eksportini oshirish har bir milliy iqtisodiyotda qo'shimcha talabni paydo qiladi va aholining ish bilan bandligi darajasi oshishi va xorijiy valyuta tushumlari ko'payishini ta'minlaydi. Shuning uchun milliy iqtisodiyotlarda turizmni rivojlantirish qo'shimcha qiymat oshirish, iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa respublikamiz turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari, vositalari va usullarini tadqiq etish orqali barqaror rivojlanishining strategik yo'nalishlarini aniqlash va turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Turizm sohasini rivojlantirish va tartibga solish mexanizmlariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha turli xil qarashlar va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Turizm xizmatlari bozorida talab va taklif o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash hamda turistik mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, biz ushbu yo'nalishda ba'zi mualliflarning fikr va mulohazalarini o'rganib, ularning ilmiy yondashuvlarini umumlashtirib, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari, vositalari va usullari bo'yicha fikrlarimizni qisqacha bayon qilamiz. MDH olimlari S.G.Surkov va V.I.Krivoruchkolarning "Международный туризм в России: проблемы развития и управления" nomli asarida Rossiyada xalqaro



turizm bozori rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va integratsion jarayonlar, turizm industriyasi subyektlari faoliyati, xalqaro turizmni tartibga solish mexanizmlari, xalqaro turistik siyosatning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar<sup>[6]</sup>. Mualliflar o'z asarida xalqaro turizm rivojlanishining omillari, globallashuv jarayonlarining turistik faoliyatga ta'siri, turizm destinatsiyasi rivojlanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratganlar. M.M.Ramadonova va M.A.Makarchenkoning "Государственное регулирование туристической деятельности" nomli asarida turistik faoliyatni tartibga solish usullari, vositalari va shakllari yoritib berilgan. Bunda turizm sohasini tartibga solishda davlatning rolga ham alohida e'tibor qaratilgan. Biroq asarda turistik faoliyatni tartibga solish usullari va vositalari tasnifi ishlab chiqilmagan<sup>[6]</sup>. Shuningdek, I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunovalarning tadqiqotlarida mamlakatimizda turizm sohasini va industriyasini rivojlantirish, turistik-rekratsion xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan bo'lib, unda turizm rekratsion xizmatlarning shakllanishi masalalariga atroflicha e'tibor qaratilgan<sup>[9]</sup>. Bunda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va uning infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga atroflicha e'tibor qaratilmagan. V.I.Novichkov, M.Yu.Polozkovlar o'zlarining "Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах" nomli maqolasida rivojlangan mamlakatlarda turizmni davlat tomonidan tartibga solish tajribalari tahliliga e'tibor qaratganlar bo'lib, unda sohada tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator takliflarni ishlab chiqqanlar<sup>[5]</sup>. Bunda MDH davlatlarida turizmni davlat tomonidan tartibga solish tajribalari bo'yicha masalalar keltirilmagan. Ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda turizmni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini yoritib berish va turizm industriyasini rivojlantirish, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, omillari, sohani samarali rivojlantirishning asosiy tamoyillari va qulay raqobatchilik muhitni shakllantirish yo'nalishlari, turizmni davlat tomonidan tartibga solish vositalari va bosqichlari doirasidagi tadqiqotlar ko'plab iqtisodchi olimlar o'rtasida to'liq bayon etilmagan. Shuning uchun, bizningcha, hozirgi vaqtda turizmni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlatning roli keng bo'lib, sohada realizatsiya qilinayotgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq muammolarga e'tiborni qaratish muhim ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida keyingi yillarda respublikamiz iqtisodiyotning transformasiyalashuvi jarayonlarini hisobga olish, turizm sohasini kompleks rivojlantirish, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari hamda tartibga solish vositalari va usullarini tadqiq etishning muhim jihati sifatida o'rganish metodologiyasi qo'llanilib, mazkur yo'nalish bo'yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning fikrlariga tayangan holda dialektik va tizimli yondashuv, qiyoslash kabi usullari orqali turizm sohasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini belgilash usuli taklif etilgan. Shuningdek, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari va vositalari, sohani samarali rivojlantirishning asosiy tamoyillari va turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash yo'nalishlari, turizmni davlat tomonidan tartibga solishning bosqichlari hamda turizm industriyasi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash darajalari bo'yicha omillariga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Turizmning rivojlanishi, ayniqsa zamonaviy beqaror iqtisodiy vaziyatda mintaqalarda turistik kompleksning bir xil emasligini ko'rsatadi, bu esa davlatni qo'llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish va iqtisodiy mexanizmni tartibga solishga turlicha yondashishga olib keladi.

Turizmning samaradorligi dam olish va madaniy obyektlar mavjud hududlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtiradigan va mintaqalarda turizmni barqaror rivojlanishiga zamin yaratadigan muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, boshqaruv tizimining hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nomukammalligi turizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Turizmni takomillashtirishning asosiy maqsadi – noyob turistik va rekreasion resurslardan, ichki urf-odatlardan, turizm sohasi tadqiqotlarining ilmiy yutuqlaridan foydalangan holda hamda asosiy vazifalar yechimini ta'minlash asosida zamonaviy va raqobatdosh turistik kompleksni yaratishdir.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun bir qator asosiy tamoyillarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardan iborat:

- xususi turizm sohasidagi obyektlarning to'liq inventarizatsiyasini o'tkazish, ushbu obyektlarni ro'y-xatdan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va joriy etish hamda xususi turistik obyektlarning reyestrini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar va mulkchilik turining barcha turdagi turistik tashkilotlarining muvaffaqiyatli ishlashi maqsadida, turizmni rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish;
- hududlarda turistik tashkilotlarning rivojlanishini rag'batlantirish uchun oqilona soliq siyosati va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;



- davlat kafolatlari va mahalliy qo'llab-quvvatlashning boshqa choralari bilan turizmga investitsiyalarni jalb qilish;
- tabiiy resurslar va dam olish maskanlarini saqlash, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish;
- turistik xizmatlarning yuqori texnologik va raqobatbardosh ichki bozorini shakllantirish maqsadida transport, qishloq xo'jaligi, sanoat, bank va investitsiya tuzilmalari, sug'urta kompaniyalari va reklama agentliklari bilan turistik tashkilotlarning hamkorligi uchun sharoit va imkoniyatlarni yaratish;
- xizmatlarni sertifikatlashning xalqaro tizimi orqali sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solishni kuchaytirish;
- turizm sohasida rahbarlar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, sertifikatlash tizimi orqali yagona kadrlar siyosatini amalga oshirish.

Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish shakllari turistik mahsulotlar va xizmatlarga talab va taklif o'rtasida dinamik mutanosiblik erishish maqsadida sohani barqaror rivojlantirishga ta'sir etishning asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadi. Iqtisodiyotning transformasiyalashishi sharoitida turizm sohasini tartibga solishning barcha usullari va vositalari uzviy o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Ulardan kompleks foydalanish turizm industriyasida amalga oshadigan munosabatlar ishtirokchilari oldida yuzaga keladigan masalalarni samarali yechish imkonini beradi.

Turizmni tartibga solish ham bevosita, ham bilvosita tartibga solishning davlat va bozor mexanizmlarining sintezidan iborat. Turizmni tartibga solish tizimi muayyan konsepsiyaga asoslangan umumiy va maxsus, qisqa va uzoq muddatli choralar, usullar, tamoyillar va vositalar majmuyini o'z ichiga oladi. Ushbu holatda, bizning fikrimizcha, turizm bozori rivojlanishiga ta'sir etishning bozor va davlat mexanizmlari o'ratsida o'zaro mutanosiblikni shakllantirishi zarur.

Hozirgi kunda turistik xizmatlar bozori samarali rivojlanishining asosiy maqsadi – sohada iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish orqali ushbu bozor rivojlanishini ta'minlovchi qulay raqobatchilik muhitni shakllantirish nazarda tutilib, quyidagi vazifalar yechimiga qaratilgandir:

1. Turistik xizmatlar bozorida talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish;
2. Turistik xizmatlar bozorida uning subyektlari o'rtasida o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilish va tartibga solish dastaklarini takomillashtirish;
3. Turistik xizmatlar bozorida raqobatchilik muhitini shakllantirish asosida turizm sohasin rivojlantirishning strategik konsepsiyasini ishlab chiqish va realizatsiya qilish.

Turizmni rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish turizmni davlat tomonidan tartibga solish mazmuniga ilmiy yondashuv asosida amaliy takliflar ishlab chiqishni talab etadi.

Iqtisodiyotni ijtimoiy sohasi sifatida turizmni davlat tomonidan tartibga solish, bozor mexanizmlarining ishlashi uchun sharoitlarni ta'minlash maqsadida davlat organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati va bozor sharoitlariga ta'siri sifatida tavsiflanishi mumkin [7]. Davlat tomonidan tartibga solish jarayoni murakkab vazifa bo'lib, u iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, uning qoidalarini asoslash, ushbu siyosatni amalga oshirish vositalari va usullarini tanlashni o'z ichiga oladi.

Ta'sir obyekti bo'yicha turizmni davlat tomonidan tartibga solish deganda uchta o'zaro bog'liq qismlarni tartibga solish bo'yicha tadbirlar tushuniladi, ya'ni: turistik resurslar, ushbu sohadagi turistik va moliyaviy oqimlarni ishlab chiqish.

Turizmni davlat tomonidan tartibga solishning mazmuni davlat organlari oldida turgan maqsadlar, shuningdek, mintaqadagi davlat turizm idoralari iqtisodiy siyosat olib borishda ularning ixtiyorida bo'lgan vositalar bilan belgilanadi [1]. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bular quyidagilardan tashkil topadi:

- turizm bozori ishtirokchilariga mamlakat iqtisodiyotining umumiy holati va ushbu tarmoq, uning rivojlanish istiqbollari to'g'risida ma'lumot berish;
- davlat organlari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ushbu bosqichida turizm sohasida amalga oshirilishi kutilayotgan iqtisodiy siyosatning eng muhim nuqtalarini asoslash;
- mamlakatdagi iqtisodiy jarayonlarga davlat ta'sirining muhim vositalaridan biri sifatida turistik kompleksning davlat sektorini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Turizmni davlat tomonidan tartibga solish obyekti bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyati yetarli darajada bo'lmagan turistik xizmatlarni ta'minlash uchun shart-sharoitlar, jarayonlar va munosabatlardir [2]. Bularga quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:



- iqtisodiy sikl, pul muomalasi, narxlar, bandlik, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari kabi umumiy biznes jarayonlari;
- hududiy maqsadli dasturlarni amalga oshirish orqali o'ziga xos bazaviy turizm sohasini rivojlantirish;
- alohida ahamiyatga molik yirik sayyohlik markazlari va dam olish maskanlari;
- mamlakatning turli hududlarida turizmni har tomonlama va mutanosib ravishda rivojlantirish.

Iste'molchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan turistik faoliyatni tartibga solishning samarali vositasi turistik xizmatlarni sertifikatlash hisoblanadi. Sertifikatlangan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat butun mamlakat bo'ylab amal qiluvchi muvofiqlik sertifikati hisoblanadi.

Hududlarda turizmni davlat tomonidan tartibga solishni bosqichma-bosqich quyidagi yo'nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- turistik xizmatlar sifatini boshqarish bo'yicha davlat xalqaro standartlari va qoidalari;
- turizm sohasining barcha darajalari va sohalari rahbarlari va mutaxassislarini sertifikatlash va attestatsiyadan o'tkazish uchun tartib va qoidalar;
- har bir turistik tashkilotga ichki va xalqaro sayyohlik bozorida munosib o'rin egallashiga imkon beradigan guruhlariga ajratish asosida "Turistik tashkilotlarning davlat reyestri" ni shakllantirish;
- soha rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ilmiy yuksaltirishning yagona integratsiyalashgan ilmiy va o'quv tizimini yaratish;
- iqtisodiyot, marketing, reklama va boshqa muhim sohalarni ilmiy asosda rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengashni tashkil etish.

Ushbu tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish turizmni iqtisodiyotning samarali rivojlanayotgan tarmog'i darajasiga ko'tarish, kasalliklarning oldini olish, individual va aholining sog'lig'ini mustahkamlash, ishchi kuchining takror barpo bo'lishi va ish bilan bandlik darajasini oshirish shaklida real natijalarga olib kelishi va dinamik rivojlantirish imkonini beradi.

Turizm industriyasi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash xalqaro, milliy va hududiy darajalarda amalga oshirilib, ular turizm bozorini samarali shakllantirish va resurslardan optimal foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi omillar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Shu bilan birga, turizmni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha turistik tashkilotlar tarmog'i faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va muvofiqlashtirish;
- mehnatga layoqatli aholini, urush nogironlarini, aholining ehtiyojmand guruhlarining boshqa toifalarini, bolalarni sog'lomlashtirish uchun mo'ljallangan sanatoriyalarni saqlab qolish va ko'paytirish bo'yicha choralarni amalga oshirish;
- kurort va rekreatsiya resurslarining davlat va hududiy reyestrlari asosida mamlakat tabiiy dorivor resurslarini hisobga olish va nazorat qilishning qat'iy tizimini joriy etish.

Turistik xizmatlar bozorini rivojlantirishning muhim vositasi raqobat muhitini yaratish, monopoliyaga va adolatsiz raqobatga qarshi kurashga asoslangan monopoliyaga qarshi siyosatdir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan monopoliyaga qarshi tartibga solish o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita yo'nalishni o'z ichiga oladi: maxsus monopoliyaga qarshi qonunchilikni ishlab chiqish hamda qabul qilish va monopoliyaga qarshi tartibga solish uchun mas'ul organlar tizimini shakllantirish.

Mamlakatning turistik hududlarida investitsiya faoliyatini rag'batlantirishning asosiy usullari quyidagilardan iboratdir:

- investitsiya faoliyatini soliq bilan tartibga solish;
- sanoat guruhlarini yaratish bilan bog'liq iqtisodiyotni institutsional o'zgartirish;
- mulk huquqining real himoyasini ta'minlash.

Turizmni davlat tomonidan tartibga solish investitsiya faolligini rag'batlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va aholining salomatligini yaxshilash nuqtai nazaridan ijtimoiy muammolarni hal qilishning



samarali vositasidir. Shu bilan birga, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari turistik kompleksning barqarorligi va raqobatbardoshligi bo'lishi kerakligini hisobga olishi muhim hisoblanadi.

Turizmni rivojlantirishda davlatning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, sohada yuzaga keladigan huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va axborot mexanizmlarini samarali amal qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bunda mamlakat miqyosida turizm industriyasini rivojlantirish va turistik xizmatlar bozoringa raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha munosabatlar hamda jarayonlarni o'zaro bog'liq tashkiliy tizim orqali tartibga solish maqsadga muvofiq hisoblandi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma'lum chegaralari ham mavjud bo'lib, ular davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotga davlatning har qanday aralashuvi ma'lum xarajatlarni taqozo etadi. Ularga eng avvalo tartibga solishni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni kiritish mumkin. Shuningdek, tartibga solishning u yoki bu shakli bozor muvozanati, ishlab chiqarish hajmi, resurslarning qayta taqsimlanishiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirni ham hisobga olish lozim. Bunda tartibga solishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarning miqdori davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi natijasida olinadigan samaradan kam bo'lishi lozim. Ularning nisbati davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chegaralarini belgilab beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida bozor mexanizmining samarali amal qilishi uchun davlat turli xil usullar va vositalar asosida ularni barqaror rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratishi zarur.

Bizning fikrimizcha, turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy jihatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- davlatning iqtisodiy siyosati va turizmni rivojlantirish bo'yicha joriy va istiqboldagi strategik maqsad va vazifalarni belgilashda o'zaro muvofiqlikni ta'minlash;
- turizmni rivojlantirishga oid davlat siyosatini realizatsiya qilish uchun markaziy va mahalliy hokimiyat organlari hamda turizm infratuzilmasi subyektlarining mas'uliyatini oshirish;
- sohada erkin raqobatni rag'batlantirish maqsadida bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy-iqtisodiy muhitni ta'minlash;
- turistik xizmatlar bozorida raqobatni himoya qilish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Демченко Д.Н. Взаимодействие государства и бизнеса: принципы, инструменты, институциональная трансформация в посткризисной экономике. Автореф. дис. канд. экон наук. Ростов-на-Дону. – 2005. – С. 15.
2. Карманов А. О некоторых положениях правового регулирования туристического бизнеса в Краснодарском крае / А. Карманов, А. Трифонов // Кубан-бизнес. – 2010 – № 42. – С. 4-6.
3. Криворучко В.И. Профессиональные стандарты и сертификация специалистов службы гостеприимства санаторно-курортных и гостиничных комплексов: Част 1 / В.И. Криворучко, В.А. Кудря, М.В. Александрова. – Сочи: Академия повышения квалификации г. Сочи. – Сочи, 2005. – 172 с.
4. Лебедев К.А. Совершенствование государственного регулирования в сфере туризма //Стратегия устойчивого развития регионов России. – 2014. – № 24. – С. 139-141.
5. Новичков В. И., Полозков М. Ю. Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах // Журнал оф неув эсономй. – 2008. – № 3 (22).– С. 46-49.8.
6. Рамадонова М.М., Макаренко М.А. Государственное регулирование туристической деятельности //Алманах научных работ молодых ученых университета ИТМО. – 2016. – С. 211-213.
7. Рыночные механизмы управления санаторно-курортной сферой / Л.В. Криворучко, В.И. Криворучко. – М: Финансы и статистика, 2003. – 176 с.
8. Сурков С.Г. Международный туризм в России: проблемы развития и управления / С.Г. Сурков, В.И. Криворучко. – М.: Советский спорт, 2009. – 214 с.
9. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Fan va texnologiya", 2014. 151-b.
10. <https://lex.uz/docs/4770761>
11. <https://lex.uz/docs/5031869>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.